Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jonathan Gray, Liliana Bounegru, Lucy Chambers: Data Journalism Handbook. Oreilly, 2012.

(2). The guardian – Artificial intelligence us elections. 2023.

(3). “COVID-19 dashboards: Insights into their design and impact” (DOI: 10.1038/s41562-020-01009-6).

(4). Digital Journalism: “Automated Journalism: A Meta-Analysis of Readers’ Perceptions of Human-Written vs. Automated News”. 2018.

Ramatova Ma’mura Gulimboy qizi (UrDU mustaqil tadqiqotchisi; ramatovamamura@gamil.com; https://orcid.org/0000-001-5774-6936)

SHIMOLIY XORAZMDAGI INDIKATORLI VA FORMANTLI GODONIMLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada topoindikator, topoformantlar tahlili, Shimoliy Xorazmdagi godonimlar tarkibidagi indikator va formantlar, ularning tarixiy shakllanishi va taraqqiyoti, godonimlar yasalishidagi o‘rni xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *toponimika, indikator, formant, godonim, topoformant, toponimik aniqlagich, topoaffikslar, geografik termin, konversiya.*

ФОРМАНТНЫЕ И ИНДИКАТОРНЫЕ ГОДОНИМЫ В СЕВЕРНОМ ХОРЕЗМЕ

Аннотация. *В данной статье говорится о топоиндикаторах, анализе топоформантов, индикаторов и формантов в годонимах Северного Хорезма, их историческом становлении и развитии, их месте в создании годонимов.*

Ключевые слова: *топонимия, показатель, форманта, годоним, топоформант, топонимический определитель, топоаффиксы, географический термин, конверсия.*

FORMANT-BASED AND INDICATOR-BASED GODONYMS IN NORTHERN KHOREZM

Annotation. *This article talks about topoindicators, analysis of topoformants, indicators and formants in the godonyms of Northern Khorezm, their historical formation and development, their place in the creation of godonyms.*

Key words: *toponymy, indicator, formant, hodonym, topoformant, toponymic determinant, topoaffixes, geographical term, conversion.*

Kirish. Toponimiya til onomastik sathining bir qismi bo‘lib, geografik joy nomlari, ularning tanlanish tamoyillari, tarixi, tahlili va tasnifi bilan shug‘ullanadi. O‘zbek toponimiyasida qadimiy va yangi davr toponimlari yonma-yon mavjud bo‘lib, bu tizim tarixiy rivojlanishning mahsulidir. Ba’zi joy nomlarining paydo bo‘lish tarixi unutilgan bo‘lsa ham, ularning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlanadi. Shu sababli o‘zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy tarixiy toponimlar, yaqin o‘tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma-yon yashamoqda. Ushbu holat Shimoliy Xorazm mikrotoponimiyasi tizimi uchun ham tegishli. Albatta, toponimiya tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo‘lganini aniq belgilashning iloji yo‘q, chunki ko‘pgina nomlarning qachon va kim tomonidan berilgani hozirda unutilgan. Shu sababli joy nomlarining ijodkori xalq deb baholanadi hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar, an’anaviy toponimlar, xalqona nomlar deb yuritiladi.

Shu paytgacha o‘zbek onomastikasida soha bo‘yicha, ayniqsa, toponimika yo‘nalishida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Ularda geografik nomlar, jumladan, ularni vujudga keltirishda faol ishtirok etadigan, bunday nomlarning tarkibiy qismi sanalgan toponimik indikatorlarning ayrim xususiyatlari bo‘yicha ham muayyan darajada mulohazalar bildirilgan. Ammo o‘zbek tilshunosligida toponimik indikatorlar masalasi kam tadqiq qilingan. Zero, ushbu guruhga kiruvchi leksik birliklar joy nomlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Uni ilmiy jihatdan tadqiq qilish muayyan hududga xos bo‘lgan qadimiy so‘z yasalish usullari, fonetik hodisalar, hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan ayrim affikslarning evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Ammo ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar hanuzgacha yetarli emas, uning hali yechilmagan qirralari mavjud. Xususan, Xorazm toponimiyasi indicatorlarini grammatik jihatdan tekshirish bir qator lisoniy masalalarni yoritishga, xususan, tilimizda mavjud bo‘lgan, shuningdek, ba’zi iste’moldan chiqqan yasovchi vositalarni aniqlashga, o‘zbek tilida so‘z yasalishining ayrim jihatlarini qayd etishga yordam beradi. Ma’lumki, tilimizdagi ushbu leksik birliklar juda uzoq davrning mahsuli bo‘lib, ularda mazkur hududda yashovchi xalqning til xususiyatlari, ularning o‘ziga xos jihatlari saqlanib qolgan. Shuningdek, turli xalq vakillarining bir joyda aralash yashaganliklari hamda son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etgan xalq yoki siyosiy va iqtisodiy jihatdan hukmronlik qilgan xalq boshqa (nisbatan kam sonli) xalqni o‘z ta’siriga olgan. Bu esa ayni vaqtda ularning tilida, ayniqsa, o‘sha xalqlar yashagan joylardagi onomastik birliklarda o‘z aksini topgan. Shunday ekan, bunday holat toponimlarning ajralmas qismi hisoblangan toponimik indikatorlarda ham o‘z izini qoldirishi, shubhasiz.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ko‘pgina nomlarning etimologik asoslari unutilgan bo‘lsa ham, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo‘ladi. Bu nomning tanlanish motivlari va grammatik strukturasini tahlil qilish orqali aniqlanadi. Ayniqsa, iste’moldan chiqqan nomlar o‘rnini to‘ldirish, yangi obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

Muayyan til toponimiya fondi yangi nom yasash, o‘zga tillardan nom o‘zlashtirish usullarida boyib, yangilanib boradi. Toponimik tizimning o‘zgarishi va boyishida har ikkala usul ham muhim. Ammo yangi nom ijod qilish, ya’ni, yangi nom yasash yo‘li tilning o‘z ichki imkoniyatlariga tayangani, unda tilning milliylik ruhi saqlangani uchun afzalroq, ilg‘orroq, deb baholanadi. Geografik nomlar tarkibida bir xil elementlarning takrorlanishini olimlar allaqachonlar o‘z nazariyalari bilan isbotlab bo‘lishgan. Masalan, bundan yarim asr oldin A.X.Vostokov Rossiya gidronimlarining oxirida keladigan *-ga, -ma, -va, -ra, -ta* kabi bo‘g‘inlar takror-takror uchrashiga e’tibor bergan edi. A.Orlov ham Rossiyaning Yevropa qismiqdagi daryolar nomlarining oxirgi qo‘shimchalariga qarab, bir necha guruhga bo‘lgan. Keyinchalik, olimlar ana shunday bir xil qo‘shimchalar bilan tugaydigan qatorlarni aniqlash uchun oxirgi qo‘shimchalarga ko‘ra teskari lug‘atlarni tuzishgan. Ana shunday qo‘shimchalar qandaydir ma’noga ega bo‘lsa kerak, degan o‘y bilan ular formant yoki topoformant deb atala boshlandi [5;3–31-b.]. Toponimlarning affiksatsiya usulida yasalishi masalasi nomshunoslikdagi eng chalkash, munozarali muammolardan biridir. Chunki hozirga qadar o‘zbek nomshunoslari yozgan ko‘pgina tadqiqotlarda toponimga asos bo‘lgan apellativning yasalishi bilan toponimning yasalishi farqlanmaydi, toponegizni yasayotgan so‘z yasovchi morfemalar toponim yasovchilar deb talqin qilinadi. Sh.Temirov “N.Oxunov tadqiqotida joy nomlarining morfologik usulda yasalishi haqida to‘xtalib, *O‘qchi, Dasturxonchi, Temirchi, Ozodlik, Hurlik, Shodlik, Degrezlik, Misgarlik, Novvoylik* nomlari toponimlarning morfologik usulda hosil qilinishi” deb talqin qilganini qayd qiladi [10;79–82-b.].

3. Muhokama va natija. Geografik terminlar hududning tabiati, geografiyasi, tarixi, etnografiyasi, tili – dialekt va shevalari haqida ma’lumot beruvchi bebaho lisoniy manbadir. O‘zbek tili geografik terminologiyasida geografik terminlar ham salmoqli o‘rin tutadi. G.Bo‘tayorova o‘zbek tilidagi xalq geografik terminlari monografik aspektda o‘rganilganligini qayd qiladi [2;79–80-b.]. Geografik terminlar toponimlarning turlarini ifodalash bilan birgalikda qo‘shma tarkibli toponimlar, jumladan, oronimlar tarkibida indikator sifatida bir qator onomastik vazifalarni ham bajaradi. Ilmiy manbalarda indikator termini turlicha izohlanadi va ta’riflanadi. E.M.Murzayev indikatorni toponimga xos belgi-xususiyat hamda holatlarni ifodalovchi so‘z deb izohlaydi [6;21–22-b.].

Toponimik indikator terminini o‘zbek toponimikasida ilk marta Z.Do‘simov ilmiy muomalaga olib kirgan [3;71–74-b.]. U joy nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning turini, xarakterini bildiruvchi lug‘aviy birliklarni indikatorlar, deb izohlaydi. Olimning fikricha, indikatorlar o‘zi ifodalayotgan obyekt haqida ma’lum darajada ma’lumot berish xususiyatiga ega. T.Nafasov esa indikatorlarni “Joy nomi yasashda qatnashib, uning tarkibida obyekt turini bildiradigan so‘z” [8;287-b.], deb izohlaydi. O‘zbek toponimik tizimiga mansub ayrim indikatorlar O‘.Rajapov tomonidan tadqiq qilingan [9]. Indikatorlarni geografik terminlar doirasida o‘rgangan P.G‘ulomov avvalgi an’analarga muvofiq tarzda ularni “toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar”, deb ta’riflaydi [1;4-b.].

Lingvistik lug‘atlarda izohlanishicha, “indikator” termini, asli, lotincha *indicator* so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘rsatkich”, “aniqlagich” degan lug‘aviy ma’noni anglatadi va quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

a) fizikada, texnikada fizikaviy miqdorlarni, massa, bosim va boshqalarning o‘lchovini aniqlaydigan asboblarning umumiy nomi;

b) kimyoviy jarayonlarning xususiyatini ko‘rsatish uchun oz miqdorda qo‘shiladigan modda;

d) shuningdek, toponimikada yuqorida keltirilgan ma’noda qo‘llanadi.

1980-yillardan boshlab ilmiy adabiyotlarda *toponimik indikator* termini o‘rnida uning boshqacharoq shakli – *toponimik aniqlagich* termini qo‘llana boshladi. Shu bilan bog‘liq tarzda oronimik aniqlagich termini ham iste’molga kirdi. Dastlab, toponimik aniqlagich termini S.Nayimov ishlarida kuzatildi [7;63–64-b.]. U toponimik indikatorlar toponim ifodalayotgan obyektning xarakteriga, belgisiga, uning qanday obyekt turi ekanligiga ishora qilishini qayd etadi .

Toponimiyaga doir so‘nggi tadqiqotlarda ham indikator termini o‘rnida aniqlagich, toponimik aniqlagich, topoaniqlagich terminlari qo‘llanmoqda. O‘zbek tilidagi gidronimik indikatorlar N.Uluqov tomonidan mukammal tasnif va tahlil qilingan. Olim yetarli tahlillar asosida toponimik indikator, gidronimik indikator terminlarini qo‘llash semantik va ilmiy jihatdan to‘g‘ri ekanligini asoslaydi [11;13-b.]. Mahalliy geografik terminlarning ma’lum qismini taskil etadigan toponimik indikatorlar ham semantik xususiyatlarga ko‘ra turlichadir. Ularni quydagicha guruhlar asosida tahlil qilishimiz mumkin.

Toponimik indikatorli godonimlar. *ovul – Kuyaovul, Yuzovul, Sartovul, Xo'jaovul, Gubrakovul, Olongovul, Qumovul, Qozoqovul, Arnaovul, Bo'zovul, Sariovul, Arnaovul, Quloqovul, Turkmanovul, G'ayratovul, Oltovul...* Ushbu indikator turkiy tillarning ko'pchiligida uchraydi va *ag'al, avil* kabi variantlarga ega bo'lib, bu so'z E.M.Murzayev lug'atida "to'xtash joyi, atrofi o'ralgan joy, mollarni qamash uchun qo'ra" kabi ma'nolarni; E.M.Sevortyan lug'atida "uy, qishloq, yashash joyi, qishloq jamoasi" ma'nolarini anglatuvchi eng qadimgi so'z ekanligi qayd etilgan [11;110–111-b.].

qal'a (ad. orf. *qal'a*) – *Eskiqal'a, Bo'zqal'a, Gujumqal'a, Go'naqal'a, Toshqal'a...* A.Z.Rozenfeld *"qal'a"* so'zining geografik nomlarda uchrash chegarasi juda kengligi, Yaqin va O'rta Sharqdan to Pireney yarim orollarigacha tarqalganligini aytgan edi. Haqiqatan ham, ushbu so'z Eron va turkiy tillar toponimiyasida juda keng tarqalgandir. "Qal'a" so'zi hozirgi kunda "shahar, o'ralgan joy, qasr *(рус. крепость на холме, крепость, замок)*" ma'nolariga ega. Eroniy tillarda atrofi o'ralgan, tepalikdagi joyga, ba'zan oddiy tepalik ham qal'a deyilgan. Qirg'iz tilida "qala" oldin "qishloq" ma'nosiga ega bo'lgan, keyinchalik esa shaharlar shu nom bilan atala boshlagan. O'zbek tilida ham bu so'z bir vaqtlar shahar yoki bozor bilan bog'liq bo'lgan.

ko'pir (ad. orf. *кўприк*) – *Chotko'pir, Mamako'pir, Tuzko'pir, Taxtako'pir, Yormishko'pir, G'aniko'pir* kabi toponim va godonimlar tarkibida uchraydi. *Ko'pir* indikatori "ko'prik" ma'nosidan tashqari "chegara" ma'nosini ham anglatadi. Ma'lum bir daha yoki mahallaning chegarasi ko'prik bilan belgilangan. Ma'lum davrda ko'prik ham muhim differensial belgi hisoblangan. Ayrim obyektlar ko'prik orqali farqlangan. Demak, dastlab, bu nomlar *Mamako'prikli qishloq, Taxtako'prikli qishloq* shaklida bo'lgan. Keyinchalik, bu so'z funksional indikatorga aylangan va obyektni ham, uning belgisini ham ifodalagan.

Gidronomik indikatorli godonimlar: *Oltinsoy, Mingyormish, Yangiyop, Devonko'l, Oltinko'l, Oqko'l, Gulmanko'l, Uchquduq, Usmonko'l, Yangiyop, Qo'ng'iryop, Amudaryo sohili, Mang'it arna, Qo'ng'irotyop, Olg'ayop, Naymanbo'yi, Ulliyarmish, Mang'itarna, Atabayarna...*

yap (ad. orf. *yop*) ushbu indikator yuqoridagi kabi o'nlab toponimlar va gidronimlar tarkibida ishtirok etadi. Qozog'istonda *yap* (djap) "kanal", Turkmanistonda "yap", rus tilida "магистральний канал" ma'nolariga ega. Barcha tadqiqotchilar "yap" apellyativi eroniy tillardagi "ob" (suv, daryo) so'zi bilan aloqador degan fikrni bildiradilar. Eski yozma manbalarda "yop" so'ziga "qazilgan ariq" deb izoh beriladi.

yarmish (ad.orf.yormish) indikatori *Yarmish, Mingyormish, Ulliyarmish* kabi nomlarda uchraydi. Yarmish Shimoliy Xorazmda "kichik kanal" ma'nosiga ega. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida *yarmish //djarmish* "Amudaryodan suv oladigan ariq, kanal" ma'nosini ifodalaydi.

ko'l (ad. orf. kөl) indikatori ko'plab turkiy tillarda *kol, kul, xoll, kule, kuol* kabi fonetik variantlarda qo'llanadi. Bu indikator, K.K.Yudaxinning aytishicha, qirg'iz tilida *gol* shaklida uchraydi va faqat geografik nomlar tarkibida kelib, rus tilida "русло речки, речная долина" ma'nolarini ifodalaydi.

quduq idikatori sun'iy obyektlarni ifodalovchi indikatorlardan biri hisoblanadi. *Quduq* indikator Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona va boshqa viloyatlardagi joy nomlari tarkibida uchraydi. Ushbu indikatorli gidronimlarning transonimizatsiya asosida godonimlarga ko'chishi O'zbekistonning ba'zi hududlarida, ayniqsa, cho'l zonasidagi tumanlarda ko'plab uchraydi. Shimoliy Xorazmning, asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasiga yaqin hududlarning ko'cha nomlarida bu kabi indikatorni uchratshimiz mumkin.

Funksional indikatorli godonimlar. *Bekobod, Zangilobod, Islomobod, Qumobod, Tog'oyobod, Fayzobod...* Ushbu godonimlar tarkibidagi "*...abad* qismini funksional indikator sifatida izohlash mumkin" [14;38-b.]. Bu indikator bugungi kunda O'zbekiston hududida "qishloq, aholi punkti" ma'nolarini ifodalaydi. Ammo bu qismni E.M.Murzayev, T.Nafasov kabi ayrim toponimistlar joy nomi yasovchi formant deb hisoblaydi. A.L.Xromov ham ushbu komponent O'rta Osiyoda eng sermahsul topoformantlardan ekanligini, shuningdek, uning tarqalish areali Eron, Afg'oniston va Pokiston kabi mamlakatlarni ham o'z ichiga olishini qayd qiladi. *Obod* indikatori yangi nomlar yasashda ham ishtirok etadi [12;60-b.].

Shimoliy Xorazm hududida tomon bildiruvchi so'zlar indikator vazifasida kelishini ham kuzatish mumkin. Masalan, *Oyoqyoq, Yuqori yoq, Arqaavul, Arqa ko'cha, Qibla ko'cha...* kabi bazi godonimlar ushbu fikrni dalillaydi. *Arqa* Xorazmda shimol tomonni bildiradi, bu tomonning qarama-qarshisi *qibla* so'zi orqali ifodalanadi. Bu so'z ham ko'plab nomlar tarkibida ishtirok etadi va o'zi yolg'iz holda ham toponim sifatida qo'llanadi. G'arb va Sharq tomonlarini ifodalash uchun *kunbotar* hamda *kunchiqar* so'zlari ishlatiladi.

Hudud godonimlari tarkibida quyidagi formantlar ham ancha faol:

***-ma* topoformanti:** *O'yilma, Otkorma...* Bu formant ko'pgina turkiy tillarda sermahsul so'z yasovchi bo'lgan, ba'zi olimlarning ko'rsatishicha, -ma qo'shimchasi XIV–XV asrlarda keng tarqalgan bo'lib,

ikki xil vazifani bajargan: so‘z yasagan va shakl yasagan. Lekin toponimlar tarkibida faqat so‘z yasovchi sifatidagina qaraladi. U so‘zning yasovchilik ma’nosida toponimlarga qo‘shilgan [9;124-b.].

***-lar, -li* topoformantlari:** *Sarilar, Og‘alar, Oslar, Palvonlar, Qullar,G‘iybatchilar, Suvchilar, Sutchilar, Bolchilar, Temirchilar, Fermerlar, Shixlar, Bog‘bonlar, Qo‘yboqlar, Nukuslar, Qazaqlar, Shipyonlar, Baytallar, Bo‘rli, Moyli, Kurrali, Jiydali, Katli, Qangli, Subutli...* Ushbu nomlardagi *-li, -lik, -chi* tipidagi qo‘shimchalar toponimik derivat xarakterida emas, ular bazi toponimlarni yasashda nolga tengdir. Toponimlar tarkibida uchrovchi bu tipdagi qo‘shimchalar leksik-grammatik yasalish natijasidagina emas, balki boshqa qator sabablar orqali sodir bo‘ladi. Ko‘pincha, toponimlar soddalashuvi jarayonida ayrim componentlarning tushushi – ellipsis orqali ham toponimlar tarkibida nol ko‘rsatkich paydo bo‘ladi [13;160-b.].

***-chi* topoformanti:** *Cho‘bolonchi, Sabinchi, Quruvchi, Vahimchi, Oyoqchi, Suvchi , Asalchi, Chiroqchi, Alamchi, Taganchi... -chi, -lar, -li* tipidagi affikslar ayrim hollarda toponim yasovchilar ham yaqin tursa ham, ular ko‘pgina xususiyatlari va diapozoniga ko‘ra, toponim yasovchilardan (topoformantlardan) farq qiladi. Ular ayrim ma’nolari bilan toponimlarga yaqin so‘zlar yasaydi. Shuning uchun ham, ko‘pincha, toponim yasalishi tarkibida obyektni ko‘rsatuvchi formal elementga o‘xshab qoladi. Bu xildagi qo‘shimchalar yasagan so‘zlar o‘zlarining jamlik ifodalashi, inson faoliyati, hunari, mashg‘ulotini ko‘rsatish kabi qator ma’nolari bilan toponimlarga yaqin turadi. Ular toponimik modellarga mos keladi. Shu sababli ham bunday so‘zlar boshqa so‘zlarga nisbatan joy nomiga aylanishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun ham bu tipdagi qo‘shimchalarni toponimik formant yoki topoformant deb atash to‘g‘riroqdir [4;44–45-b.].

***-lik, -zor* topoformantlari:** *Yuzumlik, Birdamlik, Do‘stlik, Og‘izbirlik, Bog‘zor, Tutzor…* O‘z davrida toponimlarning morfologik usul bilan yasalishi masalasiga Z.Do‘simovning maqolasi ancha oydinlik kiritdi, deyish mumkin. Olim *Bazzozlik, Hurlik* va boshqa toponimlarning toponimga aylanguncha bo‘lgan ma’nosi *bazzozlik, hurlik* kabi leksemalarning ma’nolari orqali konkretlashadi. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan toponimlar *-lik* affiksi bilan hosil qilingan emas, balki *bazzozlik, hurlik* so‘zlarining toponimga ko‘chishi natijasida vujudga kelgan. Demak, bu kabi godonimlarda ham affiksal yasalish emas, balki onomastik konversiya usulini kuzatish mumkin.

4. Xulosa. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirga holda aytish mumkinki, o‘zbek toponimiyasida qadimiy va yangi davr toponimlari yonma-yon mavjud bo‘lib, ularning tarkibida joy nomlarini ifodalovchi toponimik indikatorlar muhim rol o‘ynaydi. Toponimik indikatorlar joy nomlarining yasalishi va ular orqali tildagi ba’zi affikslarning taraqqiyotini o‘rganishda qimmatli manba sanaladi. Biroq bu masalada o‘zbek toponimikasida hali ba’zi chalkashliklar mavjud. Ayniqsa, toponimlarning morfologik yasalishi va indikatorlarning turlari to‘g‘risida aniq yondashuvlar shakllantirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). G‘ulomov P., Mirkamolov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. Toshkent, 2005, 4-bet.

(2). Бўтаярова Г. Ангор тумани ономастикасининг систем-структур хусусиятлари. Термиз, 2023.

(3). Дўсимов З. Топонимик индикаторлар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1972, 5-сон, 71–74-бетлар.

(4). Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент, 1985, 44–45-бетлар.

(5). Қораев С. Топономика. Ўқув қўлланма, Тошкент, 2006, 31-бет.

(6). Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. Москва, “Мысль”, 1974, с. 21–22-бетлар.

(7). Наимов С. Топонимик индикаторлар ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1983, 4-сон, 63–64-бетлар.

(8). Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1988, 287-бет.

(9). Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс., Тошкент, 2009.

(10). Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Самарқанд, 2019, 79–82- бетлар..

(11). Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимиясининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филол. фан. докт. дисс. автореф., Тошкент, 2010, 13-бет.

(12). Хромов А.Л. Таджикская микротопонимия долины Верхнего Зерафшана и Ягнаба. Ономастика Средней Азии. Москва, 1978, с. 60.

(13). Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография, Тошкент, 2020, 160–161-бет-лар.

(14). Юлдашев Д. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик тадқиқи. Филол. фан. номз. ...дисс., Нукус, 2012, 38-бет.